

BOSHLANG'ICH SINFLARDA CHET TILINI O'RGANISHDA KOMMUNIKATIV O'YINLAR HAMDA ULARNING AHAMIYATI

Usmonova Farangiz Bahodir qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy Universitet Xorijiy filologiya fakulteti
fransuz filologiyasi kafedrası 4-kurs talabasi.

Ilmiy rahbar: **D.I. Djafarova**

Fransuz filologiyasi kafedrası mudiri, dots.

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida chet tili ko'nikmalarini oshirish va boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet tilini o'rganishda kommunikativ o'yinlar uchun pedagoglar mahorati, chet tilini o'rgatishda qo'llaniladigan turli xil metodlar va chet tilining o'quvchilar uchun qanchalik muhim ahamiyatga molik ekanligi haqida so'z boradi. Hozirgi kunda har bir yosh avlod xorijiy tillarni bilishi zamon talabi.

Kalit so'zlar: ko'nikma, malaka, muloqot oldi faoliyatlari, konservativ metod, savol-javob, debatlar, kommunikativ o'yinlar, dialog, muloqot.

Аннотация: В данной статье навыки педагогов по совершенствованию владения иностранным языком у учащихся начальных классов и коммуникативные игры при изучении иностранного языка у учащихся начальных классов, различные методы, применяемые в обучении иностранному языку и иностранному языку, рассказывает о том, насколько это важно для учащихся. В наше время каждому молодому поколению необходимо знать иностранные языки.

Ключевые слова: умение, компетентность, предкоммуникативная деятельность, консервативные метод, вопрос-ответ, дебаты, коммуникативные игры, диалог, общение.

Annotation: Dans cet article, les competence des pedagogues pour ameliorer les competances en langues etrangeres chez les eleves du primaire et les jeux communicatifs dans l'apprentissage d'une langue etrangere aux eleves du primaire diverses methods utilisees dans l'enseignement des langues etrangeres et la langue etrangere. Il parle de son importance pour les etudiants. De nos jours, chaque jeune generation a besoin de connaitre des langues etrangeres.

Mots clés: habilité, competence, activites de pre-communication, methode conservatrice, question-reponse, debats, jeux communicatifs, dialogue, communication.

Chet tilini o'qitishda kommunikativ o'yinlardan foydalanish zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish judayam yaxshi samara beradi. Mashg'ulotlarda kommunikativ o'yinlardan foydalansa, o'quvchilarda chet tilini o'rganishga faol qiziqish vujudga keladi va chet tiliga doir bilimlarni egallashga intilish kuchayadi. Bunday mashg'lotda asosan o'quvchilar faolligi kuzatiladi, o'qituvchi esa ularni yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi.

Hozirgi kunda yurtimizda yosh avlodni bilimli va salohiyatli tarbiyalash uchun turli xil islohotlar amalga oshirilmoqda. Bularning natijasi o'laroq yosh avlod har tomonlama komil bo'lib yetishmoqda. Hozirgi kunda har bir yosh xorijiy tillarni bilishi zamon talabi. Jumladan,

boshlang'ich ta'lim sohasida bu yo'nalishga katta e'tibor berilmoqda. Va bu yuzasidan turli xil islohotlar amalga ishirlilmoqda. Masalan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1875 sonli qarori bunga yaqqol dalil desak mubolag'a bo'lmaydi. Chet tillarini o'rgatishda kommunikativ o'yinlarning roli albatta muhim. Chunki, bola salohiyatini kengaytirib, diqqatlik darajasini oshiradi. Darsga qiziqish bilan birgalikda mas'uliyat hissi yanada ortadi. Ya'ni o'quvchilar quyidagi hollarda tilni o'zlashtiradilar: 1) ko'p miqdorda yangi materiallar olganlarida, 2) o'quv jarayonlarida faol ishtirok etganlarida, 3) o'quvchilar jamoasida ijobiy his-tuyg'ular va qulay munosabatlarga ega bo'lganda. Demak, o'yinlar o'quvchining o'ziga ishonchini yanada ortishiga yordam beradi. So'ngi yillarda chet tillarini o'rganishga va o'qitishga bo'lgan e'tibor sezilarli darajada oshib bormoqda. Bu esa chet tili darslarini, xususan, fransuz tili fanini qiziqarli qilib o'tishni ya'ni turli innovatsion metodlardan, texnik vositalardan, turli xil o'quvchini jalb qiluvchi, interfaol o'yinlardan foydalanishni taqozo etmoqda. Dars davomida bunday o'yinlardan foydalanish o'quvchining fanni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini yanada oshiradi. Bu o'yinlarga talaygina misollarni keltirib o'tamiz:

- OBJECT-bu o'yin o'quvchilarning so'z boyligini oshiradi.
- Tennis o'yini- bu o'yin o'quvchilarning tezligini oshiradi.
- Les jeux de presentation- bu o'yin o'quvchilarning diqqatini va mas'uliyatini oshiradi.
- Les jeux de vocabulaire et/ou grammaire- bu o'yin o'quvchilarga tug'ri gap tuzish va erkin muloqotni o'rgatadi.
- Les jeux écrits- bu o'yin har bir mavzu yuzasidan muayyan fikr yuritishni o'rgatadi.
- Les jeux de revision- bu o'yin xulosa qilishni va xatolar ustida ishlashni o'rgatadi.
- Jeux de rôles et de simulation- bu o'yin tezkorlik bilan aniq bir qarorga kelishni, qaror qabul qilishni o'rgatadi.
- Les discussions en classe de langue- bu o'yin o'z fikrini bayon qila olish va o'zini haq ekanini isbotlay olishni o'rgatadi.

Va shu kabi bir qancha o'yinlarni misol qilsak bo'ladi. O'yinlardan foydalanishda ularni bolalarning bilimiga va yoshiga qarab o'zgartirishimiz, ya'ni osonlashtirishimiz yoki qiyinlashtirishimiz mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatishni majburiyat sifatida emas, aksincha, qiziqarli o'yinlar va innovatsion metodlardan foydalangan holda olib borishi, ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shunday ekan, ta'lim tizimi ham o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsi tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar ekan, kelgusida biz bo'lajak o'qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini yanada mukammal ishlab chiqib uni tadbiq qilish bilan o'z hissamizni qo'shishimiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarini o'qitish o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qarori.

2. Turdaliyeva G.N "Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar"//2020
3. Annikeeva o'yin bilan.M., "Ma'rifat", 1987 yil.
4. O'rta maktabda chet tilida og'zaki nutqni o'rgatish samaradorligini ishirish omili sifatida Aryanning o'rni. Abstrakt samimiy. dis.M., 1982 yil.
5. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory And Its Reflection In French Phraseology." *Journal of Positive School Psychology* (2022): 2883-2889.
6. Ilhomovna, D. D., & Ostonovich, B. O. (2024). Interaction of Language Games in the Articulation of "Historical Memory" Within French and Uzbek Phraseology. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 2(1), 348-354.
7. Ilhomovna, D. D., & Ostonovich, B. O. (2024). Interaction of Language Games in the Articulation of "Historical Memory" Within French and Uzbek Phraseology. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 2(1), 348-354.
8. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "The emergence of the concept of "historical memory" in linguistics and the history of its socio-cultural formation." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 12.3 (2022): 169-173.
9. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing "Historical Memory" In Uzbek and French Languages." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.
10. Rahmonova, Gulnoza, and Dildora Djafarova. "Explanation of the term" neologism." in linguistics. In Конференции. 2021.
11. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "Fransuz va o'zbek frazeologiyasida "tarixiy xotira" ni ifodalashda til o'yinlarini o'zaro ta'siri (ahamiyati)." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 1.1 (2021): 255-259.
12. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятлараро мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." *Академические исследования в современной науке* 2.17 (2023): 165-169.
13. Яхшибоева, Нодира. "ТУРИСТИЧЕСКИЙ ДИСКУРС КАК ОДИН ИЗ ОСОБЫХ ВИДОВ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО ДИСКУРСА." *International Bulletin of Applied Science and Technology* 3.6 (2023): 879-884